

Aholi Yashash Turar-Joylari, Jamoat Va Ma'muriy Binolarda Sodir Bo'lgan Yong'inlarni O'chirish Uchun Talab Qilinadigan Kuch Va Vositalarni Hisoblash Bo'yicha Dasturiy Ta'minot Ishlab Chiqish

E. E. Sabirov¹, K. D. Nortillaryev²

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi yashash turar-joylari, jamoat va ma'muriy binolarda sodir bo'lgan, shuningdek "A" yong'in sinfiga kiruvchi yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarning miqdorini axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda, oldindan aniqlash va yong'inni o'chirish ishlariga jalb qilish uchun C++ dasturlash tilida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va ishslash prinsipi, ushbu dasturga kiritilgan formulalar, qiymatlar, koeffitsiyentlar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan. Dasturiy ta'minot orqali hisoblash amallari bajarilgan va qog'ozda bajarilgan hisoblash amallari bilan solishtirilgan. Solishtirish natijalariga ko'ra fikr va mulohazalar bildirilib, ushbu dasturning o'ziga xos afzalliklari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yong'in, yong'in-qutqaruv, monitoring, tezkor-taktik, moddiy-texnik ta'minoti, modernizatsiya, xavfli tabiiy jarayonlar, tabiiy ofatlar, texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar, qattiq modda va materiallarning yonishi, prognozlash, C++ dasturlash tili, yong'in o'chirish moddalari, kuch va vositalar, mol-mulk, dasturiy ta'minotlar, kompyuter texnologiyalari, suv ta'minoti, yong'inga qarshi avtomatika.

Iqtisodiyot tarmoqlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlariga murakkab texnologiyalarning joriy etilishi, mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiya qilinishi, bundan tashqari ishlab chiqarish korxonalarining aholi punktlariga yaqin joylashtirilayotganligi, aholi soni ko'payib, urbanizatsiya jarayoni tezlashayotgani, xavfli tabiiy jarayonlarning tez-tez sodir bo'layotgani va ko'lami kengayib borayotgani, shuningdek, transchegaraviy xavflarning mavjudligi, tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar paydo bo'lish xavfini yanada oshishiga olib kelmoqda.

Favqulodda vaziyatlarning bir bo'lagi hisoblangan yong'inlarning oldini olish va bartaraf etish tizimi faoliyati tahlil qilinganda, mamlakat aholisi va hududlarini tabiiy ofatlar, texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar (shu jumladan, yong'inlar) va halokatlardan muhofaza qilishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator muammoli masalalar mavjudligi aniqlandi.

Xususan, favqulodda vaziyatlar, ya'ni yong'inlarni monitoring qilish va prognozlash tizimini yanada modernizatsiya qilish hozirgi kunda muhim vazifalarni bajarishni talab etadi. Ushbu tizim bugungi kunda yong'in xavfini aniqlash va ular yuz berganda tezkor-taktik harakatlarni amalga oshirish mexanizmlarini manzilli aniqlash imkonini bermaydi. Sodir bo'lgan yong'inlarni qisqa fursatlarda aniqlash va samarali bartaraf etish sohasidagi muammolarni hal qilish uchun mamlakatimizning mavjud ilmiy salohiyatidan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanimayapti.

Yong'in-qutqaruv tuzilmalarining moddiy-texnik ta'minoti, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarda himoya qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlash, fuqarolarni bunday vaziyatlar ro'y berganda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish, bir xil turdag'i yong'inlarning tez-tez va qayta-qayta bir xil obyektlarda sodir bo'lishi va katta miqdordagi zarar keltirishi bilan bog'liq mavjud xatarlar, shuningdek, yong'in

^{1,2} T.f.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi



sodir bo‘lgan joyga yetib borish vaqtida nima yonayotganligi, taxminiy yong‘in maydoni va yong‘inni bartaraf etishda foydalaniladigan yong‘in o‘chirish moddalarining ahvoli va miqdori haqida aniq xabardor qilish tizimi bugungi kun talablariga to‘liq javob bermaydi.

Yong‘inlarning holatini va ularni o‘chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlash - yong‘inni bartaraf etish va uning tarqalishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishning asosiy mezonlaridan biridir. Agar yong‘in joyiga yetib kelayotgan kuch va vositalar yetarli darajada bo‘lmasa, yong‘in katta hududlarga tarqalib nafaqat atrof muhitga, balki yonish hududidagi odamlarni hayoti va sog‘lig‘iga, ularning mol-mulkiga katta moddiy zarar yetkazadi va yong‘inni bartaraf etishda ko‘proq kuch va vositalarni jalg qilishni talab qiladi. Mazkur kuch va vositalarning aniq sonini bilish va yong‘inni bartaraf etish ishlariga to‘g‘ri taqsimlash uchun dasturiy ta’mnotlar yaratish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [1-3].

So‘nggi yillarda dunyoda barcha sohalarga kompyuter texnologiyalari, ular asosida tayyorlangan turli xil dasturiy ta’mnotlar kirib kelmoqda. Horij tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, uning oldini olish, yong‘inni bartaraf qilish vaqtida bevosita va (yoki) bilvosita qatnashadigan yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimlari, yong‘inga qarshi avtomatika, shuningdek yong‘in o‘chirish ishlarini samarali bartaraf qilish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlashni qisqa fursatda hisoblash ustida nafaqat horijlik olimlar, balki mahalliy olimlar ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda [4-7].

Rossiyalik olimlar A.V.Kulikov, V.B.Bubnov, Y.A.Vedyaskin va R.L.Gulumovlar tomonidan yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimlarining suv uzatish va taqsimlashini kompyuter texnologiyalarini qo‘llagan holda amalga oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ilmiy izlanishlar davomida ushbu ishlab chiqilgan dastur avtomatik va interaktiv rejimda hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini bergen. Ular mazkur dasturni tashqi va ichki yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimlari uchun yangi va rekonstruksiya qilingan suv ta’mnoti tarmoqlarini loyihalashga qo‘llanilishi, bundan tashqari, ulardan foydalanish yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tizimining ishlashi vaqtida operatsion boshqaruv tizimining ish rejimini tanlash uchun qaror qabil qilish imkonini berishini asoslab berishgan [8].

S.S.Lapishin, K.I.Volkov, O.P.Shilova va M.B.Ivanovalar tomonidan neyro tarmoq texnologiyalari yordamida yong‘inning xavfli omillari dinamikasini prognoz qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilgan. Ular tomonidan hozirgi vaqtida yong‘in xavfini baholashning neyro tarmoq texnologiyalari yordamida yondashuvi meyoriy ravishda belgilanmaganligi, shuning uchun muhofaza qilinadigan obyektning yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun mazkur tarmoqni ishlatib bo‘lmasligi ilmiy jihatdan isbotlangan [9].

YE.M.Brodnikova va V.I.Ryabovalar tomonidan yong‘in xavfini hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan. Mazkur dasturlarni ishlab chiqish uchun “Sitis” (“Flautek VD 2.50”, “Evatek”, “Blok”, “VIM”, “Sprint” modullari) va “Fenix +” (“Fenix +2”, “FenixServer”, “FireGuard 2”, “FireGuard 3”) dasturiy komplekslaridan foydalanilgan. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida yuqorida keltirilgan dasturlar bilan shu kunga qadar foydalanib kelinayotgan “GreenLine”, “Tcalc”, “Z-Model”, “PojRCalc” nomli dasturlar orasidagi o‘zaro farq, yangi yaratilgan dasturiy ta’mnotning oldingi dasturiy ta’mnotlarga nisbatan afzalliklari, o‘ziga xosligi va boshqa tomonlari keltirilgan [10].

Yuqorida keltirilgan dasturiy ta’motlar o‘rganib chiqilganda “GreenLine” nomli dastur evakuatsiyaning aniq vaqtini hisoblash, “Tcalc” nomli dastur talab qilinadigan evakuatsiya vaqtini hisoblash, “Z-Model” nomli dastur evakuatsiya yo‘llarini bloklash vaqtini hisoblash va “PojRCalc” nomli dastur yong‘in xavfinining hisoblangan qiymatlarini aniqlash uchun mo‘ljallanganligi aniqlandi [10].

A.N. Denisov tomonidan yong‘inlarni o‘chirishda yong‘in va qutqaruv bo‘linmalarini boshqarishni qo‘llab-quvvatlash usullari, modellari va algoritmlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [11].

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlil qilingan holda, yong‘inni samarali tarzda o‘chirish uchun qo‘llaniladigan eng optimal dasturiy ta’motlarni yaratish eng dolzarb vazifalardan



biri sanaladi. Hammamizga ma'lumki, mamalakatimizda har yili 12 mingga yaqin yong'in sodir bo'ladi. Bu yong'inlar turli xil jabhalarda, har xil ko'rinishda yuz beradi. Yong'in sodir bo'lgan joyda yong'in o'chirish ishlarini qiyinlashtiruvchi turli xil omillar paydo bo'ladi. Ushbu omillarni oldindan aniqlash va unga qarshi choralarini ko'rish, yong'in o'chiruvchi (qutqaruvchi)larning uzluksiz va samarali ish faoliyatini ta'minlash uchun yong'in o'chirish amaliyotiga kompyuter texnologiyalarni qo'llash uchun tadqiqot ishlari olib borildi.

Belorusiyada "Ogneborets" dasturiy kompleksi yaratilgan. Ushbu dastur kompleks yong'inlarni o'chirishda kuch va vositalarni hisoblash uchun mo'ljallangan. Dasturiy kompleksning asosiy maqsadi: yong'inni o'chirish, yong'inni o'chirish xaritalarini tuzish, yong'in sodir bo'lgan joyda kuch va vositalarni joylashtirish, uning o'lchamlari, yonish aralashmalari va ishlatiladigan yong'in o'chirish vositalarini aniqlash hisoblanadi.

Yong'inlarning ko'rsatkichlarini va yong'inni o'chirish uchun kerakli kuch va vositalarni aniqlash yong'inni bartaraf etish va uning tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishning asosiy vazifalaridan biridir. Agar bu kuchlar va vositalar yetarli bo'lmasa, yong'in katta hududga tarqalib, ko'proq kuch va vositalarni talab qilishi mumkin. Yong'inlarni o'chirish uchun ortiqcha kuch va mablag'larni ajratish benzin, vaqt va h.k. iste'mol qilish bilan bog'liq zararlarga olib keladi. Amalda, barcha xavfli ishlab chiqarish obyektlari uchun kuch va mablag'larni qo'lda hisoblash qiyin va uzoq vaqt talab etadi. Belarussiya davlatida ushbu masalani bartaraf etish va hisob kitob ishlarini osonlashtirish maqsadida "Ogneborets" dasturiy kompleksi ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlil qilingan holda, kuch va vositalarni hisoblashning dasturiy ta'minotini yaratish asosiy maqsad etib olindi. Dastavval yong'in sinflaridan kelib chiqqan holda yong'in yuzaga kelishi mumkin bo'lgan obyektlar toifalarga ajratib chiqildi. Har bir obyektning tarkibidagi bino va inshootlarning funksional vazifasidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratildi va dasturga kiritildi. Yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlash uchun zarur bo'ladigan formulalar tanlab olindi, ushbu formulada keltirilgan qiymatlar jadval shaklida, izohlarni hisobga olgan holda dasturga joylashtirildi. Biroq ushbu dasturni ishlab chiqishda quyidagi bir qator muammolar yuzaga keldi:

birinchidan, obyektlar tanlab olindi, lekin uning tarkibiga kiradigan bino va inshootlarning xilma-xilligi, ya'ni har bir bino (xona, sex)da turli xil fizik-kimyoviy xususiyatga ega muddalarning qo'llanilishi va yong'in sodir bo'lganida har xil yong'in o'chirish muddalarini bir vaqtning o'zida uzatish imkoniyatining cheklanganligi;

ikkinchidan, ketma-ketlikda berilgan formulalar sonining ko'pligi va xilma-xilligi, formulalarda berilgan qiymatlarning turli xil adabiyotlardan olinishi va to'g'ri tanlinishi;

uchinchidan, yong'in maydonini aniqlashda yong'inning chiziqli tarqalishini hisobga olganda holda, bitta shart uchun bir nechta formulalardan foydalanish zarurati;

to'rtinchidan, yong'in o'chirish maydonini aniqlashda yong'in sodir bo'lgan bino (xona, sex)da mavjud bo'lgan tuynuk (eshik, deraza va boshqa tirqish)larning soni, o'lchami, tuzilishi va joylashishi hamda ular orqali yong'in o'chirish dastaklarini yong'in o'chog'iga uzatish imkoniyatlari;

beshinchidan, yong'in sodir bo'lgan vaqtda ob-havo sharoiti (shamolning esish tezligi, yong'in sodir bo'lgan hududning o'ziga xos iqlimi, yozning jazirama va qishningsov uq qishning sovuq harorati hamda boshqa omillar)ning hisobga olinishi;

oltinchidan, yong'in haqida xabarning kelib tushishi vaqt, yong'in sodir bo'lgan joyga yetib borish vaqtida yuzaga keladigan qiyinchiliklar (yo'lning ahvoli, tirbandlik, svetofoorning qizil chirog'ida avtomobilarning turib qolishi oqibatida yong'in-qutqaruv avtomobillariga yo'l bermaslik holatlari), yong'in joyiga yetib borgandan keyin yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

Yong'in sodir bo'lgan joy haqida xabar olish, yong'in-qutqaruv qismida yig'ilish va yong'in joyiga yetib borish vaqtida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash, yong'in o'chog'iga birinchi dastaklarni uzatish va yong'inni batamom bartaraf qilish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni



aniqlash uchun matematik statistika, tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, yong'in sodir bo'lgan joyga yetib borish, yong'in holatini aniqlash va yong'in o'chog'iga birinchi dastaklarni uzatish bo'yicha sinov tadqiqotlari va olingan natijalarini dasturlash usullaridan foydalanildi.

O'tkazilgan tadqiqot ishlari davomida olingan natijalar asosida yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha formulalar, ularning koeffitsiyentlari dasturga kiritildi. Bundan tashqari, dasturni ishlab chiqishda har bir bino (xona, sex) kesimida yong'inning chiziqli tarqalish tezligi, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan suv miqdori, foydalaniladigan yong'in o'chirish dastaklarining turi, yong'in sodir bo'lgan bino, xona, sex va boshqalarning funksional vazifasi, qo'llaniladigan modda va materiallarning fizik-kimyoviy xususiyati va inson organizmiga ta'siridan kelib chiqqan holda tanlandi va ulardan foydalanildi.

Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'irlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash bo'yicha umumlashgan dasturiy ta'minoti C++ borland builder muhitida yaratildi. Dasturning asosiy oynasi 1.1-rasmida berilgan.

Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'irlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT	Jadallik va Chiziqli tezlik <ul style="list-style-type: none"> <input type="radio"/> 1. Ma'muriy binolar <input type="radio"/> 2. Kutubxona, kitob saqlash omborlari, arxiv saqlash xonalari <input type="radio"/> 3. Turar joy (yashash) uyлari <input type="radio"/> 4. Muzey va ko'rgazmalar o'tkaziladigan binolar <input type="radio"/> 5. Garajlar, tramvay va trolleybus depolari <input type="radio"/> 6. Angarlarning ta'mirlash zallari <input type="radio"/> 7. To'qimachilik ishlab chiqarish xonalari (p-yigiruv sexi) <input type="radio"/> 8. Katta maydonni egallagan yonuvchan qoplamlarini sexlar <input type="radio"/> 9. Tom va yerto'lalarning yonuvchan konstruksiyalari <input type="radio"/> 10. Omborlar (Zig'ir tolasi) <input type="radio"/> 11. Omborlar (To'qimachilik mahsulotlari) <input type="radio"/> 12. Omborlar (Rulondagi qog'oz) <input type="radio"/> 13. Omborlar (Binodagi rezina-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 14. Omborlar (rezina texnik mahsulotlar) <input type="radio"/> 15. Omborlar (kauchik) <input type="radio"/> 16. Shtabelga joylangan dumaloq yog'ochlar <input type="radio"/> 17. Shtabelga joylangan arralangan taxtalar, namligi (16 foizgacha) <input type="radio"/> 18. Yong'in bardoshligi V daraja binolar zinch qurilgan turar joy hududla <input type="radio"/> 19. Binoning tomi povol bilan yopilgan bo'lsa <input type="radio"/> 20. chorvachilli xonalardira povol to'shamma mavjud bo'lsa <input type="radio"/> 21. Teatr va madaniyat saroylari (sahnalar) <input type="radio"/> 22. Tamoshabinlar zali <input type="radio"/> 23. Savdo korxonalar, tovar moddiy boyliklar ombor va saroylar <input type="radio"/> 24. Bosmaxonalar <input type="radio"/> 25. Muzlarginchilar <input type="radio"/> 26. Maktab davolash muassasalarini <input type="radio"/> 27. Yong'inbardoshliliqi I va II darajalari binolar <input type="radio"/> 28. Yong'inbardoshliliqi I va II darajalari binolar
Yongin_turi <ul style="list-style-type: none"> <input type="radio"/> aylana <input type="radio"/> yarim aylana <input type="radio"/> chorak aylana <input type="radio"/> bir tomonlama to'rtburchak <input type="radio"/> ikki tomonlama to'rtburchak <input type="radio"/> to'liq tortburchak 	Dastak_turlari <ul style="list-style-type: none"> <input type="radio"/> A dastak <input type="radio"/> B dastak <input type="radio"/> Lafet dastak

1.1-rasm. Dasturning asosiy oynasi

Dasturning asosiy oynasidan 1-qadamda yong'in sodir bo'lgan joy tanlanadi (1.2-rasmida berilgan).



Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT	
Yongin_turi	<input type="radio"/> aylana <input type="radio"/> yarim aylana <input type="radio"/> chorak aylana <input type="radio"/> bir tomonlama to'rtburchak <input type="radio"/> ikki tomonlama to'rtburchak <input type="radio"/> to'liq tortburchak
Dastak_turlari	<input type="radio"/> A dastak <input type="radio"/> B dastak <input type="radio"/> Lafet dastak
<input type="checkbox"/> Jadallik va Chiziqli tezlik <input type="radio"/> 1. Ma'muriy binolar <input type="radio"/> 2. Kutubxonalar, kitob saqlash omborlari, arxiv saqlash xonalari <input checked="" type="radio"/> 3. Turar joy (yashash) uyari <input type="radio"/> 4. Muzey va ko'rgazmalar o'tkaziladigan binolar <input type="radio"/> 5. Garaejlar, tramvay va trolleybus depolari <input type="radio"/> 6. Angalarining ta'milash zallari <input type="radio"/> 7. To'qimachilik ishlab chiqarish xonalari (ip-yigiruv sexi) <input type="radio"/> 8. Katta maydonni egallagan yonuvchan qoplamalari sexlar <input type="radio"/> 9. Tom va yetto'lalarning yonuvchan konstruksiyalari <input type="radio"/> 10. Omborlar (Zig'ir tolasi) <input type="radio"/> 11. Omborlar (To'qimachilik mahsulotlari) <input type="radio"/> 12. Omborlar (Rulondagi qog'oz) <input type="radio"/> 13. Omborlar (Binodagi rezina-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 14. Omborlar (rezina texnik mahsulotlari) <input type="radio"/> 15. Omborlar (kauchik) <input type="radio"/> 16. Shtabelga joylangan dumaloq yog'ochlar <input type="radio"/> 17. Shtabelga joylangan aralangan taxtalar, namligi (16 foizgacha) <input type="radio"/> 18. Yong'in bardoshligi V daraja binolar zich qurilgan turar joy hududla <input type="radio"/> 19. Binoring tomi povol bilan yopilgan bo'lsa <input type="radio"/> 20. chorvachilik xonalarida povol to'shma mavjud bo'lsa <input type="radio"/> 21. Teatr va madaniyat saroylari (sahnalar) <input type="radio"/> 22. Tamoshabinlar zall <input type="radio"/> 23. Savdo korxonalar, tovar moddiy boyliklar ombor va saroylar <input type="radio"/> 24. Bosmaxonalar <input type="radio"/> 25. Muzlariqichilar <input type="radio"/> 26. Maktab davolash muassasalar <input type="radio"/> 27. Yong'inbardoshlligi I va II darajali binolar <input type="radio"/> 28. Yong'inbardoshlligi I va II darajali binolar	

1.2-rasm. Yong'in sodir bo'lgan joy nomi

Dasturning assosiy oynasidan 2-qadamda yong'in sodir bo'lgan joydagi yong'inning tarqalish shakli tanlanadi (1.3-rasmida berilgan).

Dasturning assosiy oynasidan 3-qadamda yong'in sodir bo'lgan joyning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda yong'in o'chirish dastagining turi tanlanadi (1.4-rasmida berilgan).

Dasturning assosiy oynasidan 4-qadamda qiymat tugmasi bosiladi. Tugma bosilgandan keyin assosiy oynaning o'ng tomonida quyidagilar ko'rindi:

- yong'inning erkin yonish vaqt;
- yong'inning bosib o'tgan masofasi;
- yong'in maydonini hisoblash;



Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT

Yongin_turi

- aylana**
- yarim aylana
- chorak aylana
- bir tomonlama to'rburchak
- ikki tomonlama to'rburchak
- to'liq tortburchak

Dastak_turlari

- A dastak
- B dastak
- Lafet dastak

Jadallik va Chiziqli tezlik

- 1. Ma'muriy binolar
- 2. Kutubxona, kitob saqlash omborlari, arxiv saqlash xonalar
- 3. Turar joy (yashash) uylari
- 4. Muzey va ko'rgazmalar o'tkaziladigan binolar
- 5. Garajlar, tramvay va trolleybus depolari
- 6. Angarlarning ta'mirlash zallari
- 7. To'qimachilik ishlab chiqarish xonalarini(p-yigiruv sexi)
- 8. Kalta maydonni egallagan yonuvchan qoplamlari sexlar
- 9. Tom va yerto'lalarning yonuvchan konstruksiyalari
- 10. Omborlar(Zig'ir tolasi)
- 11. Omborlar(T'oqimachilik mahsulotlari)
- 12. Omborlar(Rulondagi qog'oz)
- 13. Omborlar(Binodagi rezina-teknik mahsulotlar)
- 14. Omborlar(rezina texnik mahsulotlar)
- 15. Omborlar(kauchik)
- 16. Shtabelga joylangan dumaloq yog'ochlar
- 17. Shtabelga joylangan arralangan taxtalar, namligi(16 foizgacha)
- 18. Yong'in bardoshligi V daraja binolar zich qurilgan turar joy hududla
- 19. Binoring tomi pokol bilan yopilgan bo'ssa
- 20. chovchachilik xonalarida pokol to'shma mavjud bo'ssa
- 21. Teatr va madaniyat saroylari(sahnalar)
- 22. Tamoshabinlar zali
- 23. Savdo korxonalar, tovar moddiy boyliklar ombor va saroylar
- 24. Bosmaxonalar
- 25. Muzlariqichlar
- 26. Maktab davolash muassasalar
- 27. Yong'inbardoshligi I va II darajali binolar
- 28. Yong'inbardoshligi I va II darajali binolar

1.3-rasm. Yong'inning tarqalish shakli

Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT

Yongin_turi

- aylana**
- yarim aylana
- chorak aylana
- bir tomonlama to'rburchak
- ikki tomonlama to'rburchak
- to'liq tortburchak

Dastak_turlari

- A dastak
- B dastak**
- Lafet dastak

Jadallik va Chiziqli tezlik

- 1. Ma'muriy binolar
- 2. Kutubxona, kitob saqlash omborlari, arxiv saqlash xonalar
- 3. Turar joy (yashash) uylari
- 4. Muzey va ko'rgazmalar o'tkaziladigan binolar
- 5. Garajlar, tramvay va trolleybus depolari
- 6. Angarlarning ta'mirlash zallari
- 7. To'qimachilik ishlab chiqarish xonalarini(p-yigiruv sexi)
- 8. Kalta maydonni egallagan yonuvchan qoplamlari sexlar
- 9. Tom va yerto'lalarning yonuvchan konstruksiyalari
- 10. Omborlar(Zig'ir tolasi)
- 11. Omborlar(T'oqimachilik mahsulotlari)
- 12. Omborlar(Rulondagi qog'oz)
- 13. Omborlar(Binodagi rezina-teknik mahsulotlar)
- 14. Omborlar(rezina texnik mahsulotlar)
- 15. Omborlar(kauchik)
- 16. Shtabelga joylangan dumaloq yog'ochlar
- 17. Shtabelga joylangan arralangan taxtalar, namligi(16 foizgacha)
- 18. Yong'in bardoshligi V daraja binolar zich qurilgan turar joy hududla
- 19. Binoring tomi pokol bilan yopilgan bo'ssa
- 20. chovchachilik xonalarida pokol to'shma mavjud bo'ssa
- 21. Teatr va madaniyat saroylari(sahnalar)
- 22. Tamoshabinlar zali
- 23. Savdo korxonalar, tovar moddiy boyliklar ombor va saroylar
- 24. Bosmaxonalar
- 25. Muzlariqichlar
- 26. Maktab davolash muassasalar
- 27. Yong'inbardoshligi I va II darajali binolar
- 28. Yong'inbardoshligi I va II darajali binolar

1.4-rasm. Yong'inni o'chirish uchun qo'llaniladigan dastak turi



Aholi yashash turar joylari, jamaot va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT Yongin_turi <input type="radio"/> aylana <input type="radio"/> yarim aylana <input type="radio"/> chorak aylana <input type="radio"/> bir tomonlama to'rburchak <input type="radio"/> ikki tomonlama to'rburchak <input type="radio"/> to'liq tortburchak Dastak_turlari <input type="radio"/> A dastak <input type="radio"/> B dastak <input type="radio"/> Lafet dastak	Jiddik va Chiziqtiedik: <input type="radio"/> 1. Ma'mury binol <input type="radio"/> 2. Kutubxonalar, klib saqlash ombrolari, aviv saqlash xonalari <input checked="" type="radio"/> 3. Tutar joy (ishxonalari) uchri <input type="radio"/> 4. Muuze va kollegiamalor o'tasidagining binolari <input type="radio"/> 5. Garafiga, tramvay va trolleybus depolari <input type="radio"/> 6. Angerlerning tashish zallari <input type="radio"/> 7. To'qimachilik shahar cheg'isini vositaliga yig'uv sevi <input type="radio"/> 8. Katta maydonini egallagan yonuchan ommalalarini rostar <input type="radio"/> 9. Tom va yetofolalering yonuchan konstruktiviyasini <input type="radio"/> 10. Ombrofizitiga to'sha <input type="radio"/> 11. Ombrofizit (To'qimachilik mahsulotlari) <input type="radio"/> 12. Ombrofizit (Rubobrigi eng'iz) <input type="radio"/> 13. Ombrofizit (Birodagi reza-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 14. Ombrofizit (reza-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 15. Ombrofizit (auchik) <input type="radio"/> 16. Shababda joylangan dunulog yophochlar <input type="radio"/> 17. Shababda joylangan oraliqning taxallasi, namlig(16 foizgacha) <input type="radio"/> 18. Yongsin bardoshligi V darsga bishar zinch qurigan harar joy huddasi <input type="radio"/> 19. Birning toni pool bilan yopilgan bo'sha <input type="radio"/> 20. chonvarlik xonalarda pool to'shamha maxjud bo'lsa <input type="radio"/> 21. Techi va madaniyat sifarişlari(hishonalar) <input type="radio"/> 22. Tano'mhishlar zali <input type="radio"/> 23. Savdo konosmalari, tovar moddly boyikkilar ombar va sanoylar <input type="radio"/> 24. Beomnacimlar <input type="radio"/> 25. Mudderbishlar <input type="radio"/> 26. Malakib davolash muassasalarini <input type="radio"/> 27. Yongsinbardoshligi I va II darsajil binolari <input type="radio"/> 28. Yongsinbardoshligi I va II darsajil binolari
--	--

1.5-rasm. Dastur oynasining yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni hisoblashni boshlashdan oldindi ko'rinishi

Aholi yashash turar joylari, jamaot va ma'mury binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT Yongin_turi <input type="radio"/> aylana <input type="radio"/> yarim aylana <input type="radio"/> chorak aylana <input type="radio"/> bir tomonlama to'rburchak <input type="radio"/> ikki tomonlama to'rburchak <input type="radio"/> to'liq tortburchak Dastak_turlari <input type="radio"/> A dastak <input type="radio"/> B dastak <input type="radio"/> Lafet dastak	Jiddik va Chiziqtiedik: <input type="radio"/> 1. Ma'mury binol <input type="radio"/> 2. Kutubxonalar, klib saqlash ombrolari, aviv saqlash xonalari <input checked="" type="radio"/> 3. Tutar joy (ishxonalari) uchri <input type="radio"/> 4. Muuze va kollegiamalor o'tasidagining binolari <input type="radio"/> 5. Garafiga, tramvay va trolleybus depolari <input type="radio"/> 6. Angerlerning tashish zallari <input type="radio"/> 7. To'qimachilik shahar cheg'isini vositaliga yig'uv sevi <input type="radio"/> 8. Katta maydonini egallagan yonuchan ommalalarini rostar <input type="radio"/> 9. Tom va yetofolalering yonuchan konstruktiviyasini <input type="radio"/> 10. Ombrofizitiga to'sha <input type="radio"/> 11. Ombrofizit (To'qimachilik mahsulotlari) <input type="radio"/> 12. Ombrofizit (Rubobrigi eng'iz) <input type="radio"/> 13. Ombrofizit (Birodagi reza-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 14. Ombrofizit (reza-teknik mahsulotlari) <input type="radio"/> 15. Ombrofizit (auchik) <input type="radio"/> 16. Shababda joylangan dunulog yophochlar <input type="radio"/> 17. Shababda joylangan oraliqning taxallasi, namlig(16 foizgacha) <input type="radio"/> 18. Yongsin bardoshligi V darsga bishar zinch qurigan harar joy huddasi <input type="radio"/> 19. Birning toni pool bilan yopilgan bo'lsa <input type="radio"/> 20. chonvarlik xonalarda pool to'shamha maxjud bo'lsa <input type="radio"/> 21. Techi va madaniyat sifarişlari(hishonalar) <input type="radio"/> 22. Tano'mhishlar zali <input type="radio"/> 23. Savdo konosmalari, tovar moddly boyikkilar ombar va sanoylar <input type="radio"/> 24. Beomnacimlar <input type="radio"/> 25. Mudderbishlar <input type="radio"/> 26. Malakib davolash muassasalarini <input type="radio"/> 27. Yongsinbardoshligi I va II darsajil binolari <input type="radio"/> 28. Yongsinbardoshligi I va II darsajil binolari
--	--

1.6-rasm. Dasturning qo'shimcha oynasidagi yong'inning erkin yonish vaqtini degan joyga qiymat kiritilgandan keyingi ko'rinishi

- yong'in o'chirish maydonini hisoblash;
- yong'inni o'chirish uchun qancha suv talab qilinadi;
- yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan dastaklar soni;
- qo'shni binolarni himoya qilish uchun talab qilinadigan dastaklar soni;
- yong'inni o'chirish va yong'indan himoya qilish uchun talab qilinadigan umumi suv sarfi;
- yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan shaxsiy tarkib soni;
- yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan ekipajlar soni.

Dastur oynasining ko'rinishi 1.5-rasmida berilgan.

Dasturning qo'shimcha oynasidan 5-qadamda yong'inning erkin yonish vaqtini degan joyga qiymat kiritiladi va dasturning qo'shimcha oynasida quyidagi

1.6-rasmida keltirilgan ko'rinish yuzaga keladi.



Dasturning qo'shimcha oynasidan 6-qadamda bajarish degan tugma bosiladi. Shundan keyin dasturiy ta'minot yong'inning yong'in sodir bo'lgan joy nomi, yong'inning tarqalish shakli, yong'inni o'chirish uchun talab qo'llaniladigan dastak turi va erkin yonish vaqtidan kelib chiqqan holda, yong'inning bosib o'tgan masofasini, yong'in maydonini, yong'in o'chirish maydonini, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan suv sarfini, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan dastaklar sonini, qo'shni binolarni himoya qilish uchun talab qilinadigan dastaklar sonini, yong'inni o'chirish va yong'indan himoya qilish uchun talab qilinadigan umumiy suv sarfini, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan shaxsiy tarkib sonini va yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan ekipajlar sonini aniqlaydi. Dastur oynasining umumiy ko'rinishi 1.7-rasmida berilgan.

Dastur yordamida olingan hisoblash natijalari to'g'ri bajarilganligini aniqlash maqsadida nazariy jihatdan asoslash uchun hisoblash ishlarini amalda bajarib chiqamiz.

1. Yong'inning tarqalish turi aylana, yong'in turar joy (yashash uyi)da sodir bo'lgan, erkin yonish vaqt 12 daqiqa teng.

2. Yong'inning erkin tarqalish vaqt va bosib o'tgan masofasini aniqlaymiz:

$$a) R = 0,5 \cdot v_{ch.t.t.} \cdot \tau_1, \text{ agar, } \tau_{erk.yonish} < 10 \text{ daqiqa};$$

$$b) R = 0,5 \cdot v_{ch.t.t.} \cdot \tau_1 + v_{ch.t.t.} \cdot \tau_2, \quad \text{agar, } \tau_{erk.yonish} > 10 \text{ daqiqa};$$

Bu yerda: 0,5 – yong'inning erkin tarqalishi birinchi 10 daqiqa, meyordagidan 2 marta kam bo'linishini hisobga oladigan koeffitsient; $v_{ch.t.t.}$ – yong'inning chiziqli tarqalish tezligi (m/daqiqa), [12]; τ_1 – yong'in boshlanishidan birinchi 10 daqiqadagi vaqt [12]; τ_2 – yong'inning erkin tarqalish vaqt, lekin bunda yong'inning boshlanish jarayonidagi birinchi 10 daqiqa hisobga olinmaydi.

Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'lumiy binolarda sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash

QIYMAT	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Jadidlik Chiqiq tezlik <input type="checkbox"/> 1. Mahsuliy binolar <input type="checkbox"/> 2. Kuhubona, kitob saqlosh ombofan, anor saqlosh xonalari <input checked="" type="checkbox"/> 3. Turar joy (yerishish) yilai <input type="checkbox"/> 4. Muzey va lo'qizmalar o'raklari dastaklar <input type="checkbox"/> 5. Gazalr, tramvay va trolleybus depolar <input type="checkbox"/> 6. Angaralarning ta'mish zallari <input type="checkbox"/> 7. To'ng'ochlik shahab chiqarchi xonalari(poygruv sevi) <input type="checkbox"/> 8. Katta maydonli engalalar yonchalar o'raklari <input type="checkbox"/> 9. Tom va yet'o'llarning yonchalar konstruktorsiyasi <input type="checkbox"/> 10. Ombulola[tug'ilishi] <input type="checkbox"/> 11. Ombulola[tug'ilishi] mahsulotlari <input type="checkbox"/> 12. Ombulola[tug'ilishi] og'ozlari <input type="checkbox"/> 13. Ombulola[tug'ilishi] rezinaternik mahsulotlari <input type="checkbox"/> 14. Ombulola[tug'ilishi] tehnik mahsulotlari <input type="checkbox"/> 15. Ombulola[tug'ilishi] <input type="checkbox"/> 16. Shababiga polylengan dumabiq yug'ochlar <input type="checkbox"/> 17. Shababiga polylengan analigalar taxmalari, namig(16 foygacha) <input type="checkbox"/> 18. Yong'ibardoshligi V darsa binolar och qurilgan turar joy huddasi <input type="checkbox"/> 19. Birning tom oson bilan yopilgan bolta <input type="checkbox"/> 20. chonchilik xonelarda pold to'lihamma mayjud bo'la <input type="checkbox"/> 21. Tren va madaniy joylari(sahvalari) <input type="checkbox"/> 22. Tanochdarlik zall <input type="checkbox"/> 23. Sardor konorolari, tovar moddigi boyliklar ombar va sarg'olari <input type="checkbox"/> 24. Bismarxonlar <input type="checkbox"/> 25. Mu'dzingerilar <input type="checkbox"/> 26. Maktab devolatih muassasalar <input type="checkbox"/> 27. Yong'ibardoshligi I vell darsajil binolar <input type="checkbox"/> 28. Yong'ibardoshligi I vell darsajil binolar
Yongin_turi	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> aylana <input type="checkbox"/> yarim aylana <input type="checkbox"/> chorak aylana <input type="checkbox"/> bir tomonlama to'rburchak <input type="checkbox"/> ikki tomonlama to'rburchak <input type="checkbox"/> to'liq tortburchak
Dastak_turlari	<ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> A dastak <input type="checkbox"/> B dastak <input type="checkbox"/> Lafet dastak

BAJARISH

Yong'inning bosib olgan masofasi - - -	7 metr
Yong'in maydonini hisoblash - - -	154 kvadrat metr
Yong'in o'chirish maydonini hisoblash - - -	141 kvadrat metr
Qancha suv talab qilindi - - -	14 l/s
Dastaklar son - - -	4 ta
himoya dastaklar son - - -	2 ta
Q umumiy suv talab - - -	22 l/s
Shaxsiy tarkib soni - - -	11 nafar
Ekipajlar soni - - -	3 nafar

Mualliflar

1.7-rasm. Dastur oynasida hisoblash amallari bajarilgandan keyingi yakuniy ko'rinishi

$$R = 0,5 \cdot v_{ch.t.t.} \cdot \tau_1 + v_{ch.t.t.} \cdot \tau_2 = 0,5 \cdot 1 \cdot 10 + 1 \cdot 2 = 7 \text{ metr.}$$

Olingan natijani 3.7-rasmida keltirilgan dastur oynasidagi ma'lumot bilan solishtiramiz. Natija mos kelmoqda.

3. Yong'in maydoni va uning tarqalish shaklini aniqlaymiz. Yong'in maydoni va uning tarqalish shaklini aniqlashda birinchi navbatda, yong'in sodir bo'lgan joy yoki binoning konturi chiziladi va yong'in sodir bo'lgan nuqtadan boshlab, uning bosib o'tgan masofasi chizilib, unga asoslangan holda,



yong‘inning shakli va maydoni aniqlanadi. Yong‘in xonaning qarama-qarshi devorlariga yetib bormagan, aylana shaklida tarqalgan.

$$S_{yon.may.} = \pi R^2 = 3,14 \cdot 7^2 = 153,86 \text{ m}^2$$

Bu yerda: R – yong‘inning bosib o‘tgan masofasi, 7 metrga teng.

Olingan natijani 1.7-rasmida keltirilgan dastur oynasidagi ma’lumot bilan solishtiramiz. Olingan natijada tavofut mavjud. Chunki dastur olingan qiymatni keyingi butun songacha yaxlitlagan.

4. Yong‘in binoning qarama-qarshi devorlariga yetib bormagan, yong‘in maydoni aylana shaklini hosil qilgan va aylana shaklida yong‘in tarqalmoqda.

U holda qurshab olish sharti bilan yong‘in o‘chirish maydonini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$S_{o\cdot ch.may.} = \pi h(2R - h_{o\cdot ch.chuq.}) = 3,14 \cdot 5 (2 \cdot 7 - 5) = 141,3 \text{ m}^2.$$

Bu yerda: $h_{o\cdot ch.chuq.}$ – yong‘in o‘chirish chuqurligi, 5 m [13].

Olingan natijani 3.7-rasmida keltirilgan dastur oynasidagi ma’lumot bilan solishtiramiz. Olingan natijada tavofut mavjud. Chunki dastur olingan qiymatni keyingi butun songacha yaxlitlagan.

5. Yong‘inni o‘chirish uchun talab etiladigan suv sarfini aniqlaymiz:

$$Q_{tal}^{o\cdot ch} = S_{o\cdot ch} \cdot J_{tal} = 157 \cdot 0,1 = 14,13 \text{ l/s.}$$

Bu yerda: J_{tal} – talab qilingan yong‘inga suv berish jadalligi, 0,1 l/s [12].

Olingan natijani 3.7-rasmida keltirilgan oynadagi ma’lumot bilan solishtiramiz. Olingan natijada tavofut mavjud. Chunki dastur olingan qiymatni keyingi butun songacha yaxlitlagan.

6. Yong‘in o‘chirish uchun talab etiladigan dastaklar sonini aniqlaymiz:

$$N_{dast.}^{o\cdot ch} = Q_{o\cdot ch} / q_{dast.} = 14,13 / 3,7 = 3,82 \approx 4 \text{ ta QD-50}$$

Bu yerda: q_{dastak} – bitta dastak sarflaydigan suv miqdori, 3,7 l/s [13].

Olingan natijani 3.7-rasmida keltirilgan oynadagi ma’lumot bilan solishtiramiz. Olingan natijada tavofut mavjud emas. Chunki yong‘inni o‘chirishga 3,82 ta dastak talab qilinsa ham 4 ta dastak deb qabul qilinadi.

7. Yong‘inning xavfli omillaridan qo‘shti bino va xonalarni himoya qilish uchun talab qilinadigan yong‘in o‘chirish dastaklarining sonini aniqlaymiz:

$$N_{dast.}^{him} = N_{dast.}^{o\cdot ch} / 2 = 4 / 2 = 2 \text{ ta QD-50}$$

8. Yong‘inni o‘chirish va yong‘indan himoya qilish uchun talab qilinadigan umumi suv sarfini aniqlaymiz:

$$Q_{umum\cdot tal.} = N_{dast.}^{o\cdot ch} \cdot q_{dast.} + N_{dast.}^{him} \cdot q_{dast.} = 4 \cdot 3,7 + 2 \cdot 3,7 = 22,2 \text{ l/s}$$

Olingan natijani 3.7-rasmida keltirilgan dastur oynasidagi ma’lumot bilan solishtiramiz. Olingan natijada tavofut mavjud. Chunki dastur olingan qiymatni keyingi butun songacha yaxlitlagan.

9. Yong‘inni o‘chirish uchun talab etiladigan shaxsiy tarkib sonini aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} N_{sh.t.} &= N_{dast.}^{o\cdot ch} \cdot n_{nodam} + N_{dast.}^{him} \cdot n_{nodam} + N_{aloqa} + N_{yeng naz.} = \\ &= 4 \cdot 1 + 2 \cdot 2 + 1 \cdot 1 + 2 \cdot 1 = 11 \text{ nafar yong‘in-qutqaruvchi} \end{aligned}$$

Bu yerda: $N_{dast.}^{o\cdot ch}$ – yong‘inni o‘chirish bo‘yicha dastak pozitsiyalarida band bo‘lgan dastakchilar soni [12]; n_{nodam}^{him} – binoning yonmayotgan boshqa xonalarini yong‘indan himoya qilish uchun uzatiladigan dastaklar soni [12]; n_{aloqa} – aloqachilar soni [12]; $n_{yeng naz.}$ – yenglarni nazorat qiluvchi shaxsiy tarkib, kuch va vositalarni yoyilishi vaqtida yenglar yo‘nalish soniga qarab belgilanadi (tezkor-taktik harakatlarni bajarayotgan shaxsiy tarkib sonidan kelib chiqqan holda) [13].



Olingen natijani 3.7-rasmida keltirilgan oynadagi ma'lumot bilan solishtiramiz. Olingen natijada tavofut mavjud emas.

8. Yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan ekipajlar sonini aniqlaymiz:

$$N_{\text{ekipaj ATS}} = N_{\text{sh.t.}} / n_{\text{sh.t. ek ATS}} = 11 / 4 = 2,75 \approx 3 \text{ ta asosiy bo'linma.}$$

Bu yerda: $n_{\text{sh.t. ek. ATS}}$ – ATS dagi shaxsiy tarkib soni, garnizonning jangovar hisobi asosan yong'in o'chirish avtotsisternalari bilan jamlangan, shuning uchun bitta ekipajdagi o'rtacha shaxsiy tarkib soni 4 nafar deb qabul qilinadi [12].

Olingen natijani 3.7-rasmida keltirilgan oynadagi ma'lumot bilan solishtiramiz. Olingen natijada tavofut mavjud emas.

Xulosa. Tayyorlangan kompyuter dasturi asosida hisoblash amallari bajarildi va oldindan hisob-kitob qilingan ish bilan natijalari o'zaro solishtirildi hamda "Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'muriy binolarda sodir bo'lган yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash" deb nomlangan kompyuter dasturi kutilgan natijani berganligini guvohi bo'ldik. Umuman olganda, tadqiqotdan ko'zlangan maqsad va ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda qo'yilgan vazifalar bajarildi.

"Aholi yashash turar joylari, jamoat va ma'muriy binolarda sodir bo'lган yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni oldindan hisoblash" deb nomlangan kompyuter dasturi qanday afzalliklarga ega degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Yaratilgan ushbu dastur quyidagi afzalliklarga ega:

birinchidan, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarning sonini aniqlash uchun bir necha soniya vaqt talab qilinadi;

ikkinchidan, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarning sonini aniqlash uchun yong'ingacha, yong'in sodir bo'lган joyda va yong'indan keyin foydalanish imkoniyatini yaratadi;

uchinchidan, yaratilgan dasturni nafaqat kompyuter (noutbuk), balki smartfon, qo'l telefonlari va flejkalarga yuklab olish imkniyati mavjud, shuningdek hisoblash amallarini dastur orqali mobil telefondan foydalangan holda yong'in joyiga yo'lga chiqqan vaqtida ham to'qnash kelishi mumkin bo'lган yong'inni o'chirish uchun qancha kuch va vositalar talab qilinishini oldindan bilib olish imkoniyatini taqdim qiladi;

to'rtinchidan, ushbu dasturga ikkinchi va uchinchi yuqori chaqiriqa kiritilgan obyektlarning yong'in o'chirish tezkor rejalarini kiritish orqali har bir bino bo'yicha yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi;

beshinchidan, yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarning sonini ushbu dasturdan foydalangan holda barvaqt aniqlash yong'in o'chirish vaqtini deyarli 2-3 baravargacha, o'z navbatida yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan suv miqdorini 10-15 foizga, yong'inni o'chirish uchun jalb qilingan yong'in-qutqaruv texnikalaridan samarali foydalanish orqali yoqilg'i moylash mahsulotlarini 5-10 foizga tejalishiga olib keladi.

Umuman olganda, shu kunga qadar "Yong'inni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarni aniqlash" bo'yicha 2 ta kompyuter dasturi (mualliflari t.f.f.d. (PhD), dotsent L.A.Kamolov va A.N.Sodiqovlar tomonidan) yaratilgan bo'lib, yangi yaratilgan dastur bir yoki bir nechta obyektni qamrab olgani yo'q, u mamlakatimiz hududida joylashgan deyarli barcha obyektlarni qamrab olgan, ushbu dastur yordamida nafaqat qattiq modda va materiallarning yonishi, balki yengil alangananuvchi va yonuvchi suyuqliklarning yonishi bilan bog'liq yong'inlarni o'chirish uchun talab qilinadigan kuch va vositalarning sonini barvaqt aniqlash imkoniyatini yaratadi.



Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Qo'ldoshev A.H., Sabirov E.E., Sultonov S.S. Yong'in o'chirish taktikasi. Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV Yong'in xavfsizligi instituti, -T. Cho'lpon nomidagi NMIU. 2017. 10-b.
2. E.E.Sabirov Yong'in o'chirish taktikasi. [Matn]: o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. – Toshkent, 2021 yil. – 426 bet.
3. Sabirov E.E.Yong'in o'chirish taktikasi. O'quv q o'llanma. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, -T. "BookNomy Print" nashriyoti. 2024. 7-b.
4. Теребнев В.В., Подгрушный А.В. Под общей редакцией М.М.Верзилина. Пожарная тактика. Основы тушения пожаров: учеб. пособие / В.В.Теребнев, А.В.Подгрушный. –М.: Академия ГПС МЧС России, 2009. С. 40-45.
5. Верзилин М.М., Повзик Я.С. Пожарная тактика: Учеб. пособие -М.: ЗАО «Спецтехника НПО» 2007. С. 29-32.
6. Теребнев В.В. Справочник руководителя тушения пожара. Тактические возможности пожарных подразделений. –М.: Пожкнига, 2004. С. 8-25.
7. Теребнев В.В., Грачев В.А. Пожарная тактика. Учебник. –М.: Академия ГПС МЧС Россия, 2015. -547 с.
8. А. В. Куликов, В. Б. Бубнов, Ю. А. Ведяскин, Р. Л. Гулумов. Анализ применения компьютерных технологий в практике расчетов систем подачи и распределения воды в противопожарном водоснабжении // Пожарная и аварийная безопасность : сборник материалов XVII Международной научно-практической конференции, посвященной 90- й годовщине образования гражданской обороны, 24 ноября 2022 г. – Иваново : Ивановская пожарно-спасательная академия ГПС МЧС России, 2022. – С. 99-103.
9. С. С. Лапшин, К. И. Волков, О. П. Шилова, М. Б. Иванова. Прогнозирование динамики опасных факторов пожара с помощью нейросетевых технологий // Пожарная и аварийная безопасность : сборник материалов XVII Международной научно-практической конференции, посвященной 90- й годовщине образования гражданской обороны, 24 ноября 2022 г. – Иваново : Ивановская пожарно-спасательная академия ГПС МЧС России, 2022. – С. 103-106.
10. Бродникова Е. М., Рябова В. И. Программы для проведения расчета пожарного риска // Современные проблемы пожарной безопасности: теория и практика (FireSafety 2020) : материалы II Всероссийской научно-практической конференции / Уфимск. гос. авиац. техн.ун-т; Гл. упр. МЧС России по РБ; Общ. совет при Гл. упр. МЧС России по РБ; Всерос. студ.корп. спасателей. – Уфа : РИК УГАТУ, 2020. С. 94-98.
11. Денисов А.Н. Методы, модели и алгоритмы поддержки управления пожарно-спасательными подразделениями при тушении пожаров: Автореферат доктора технических наук. – М.: Академия ГПС МЧС России, 2018. – 48 с.
12. "Yong'in o'chirish rahbari uchun ma'lumotlar to'plami" / M.B.Musaxojiev, E.E.Sabirov. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. – Toshkent.: Fuqaro muhofazasi instituti nashriyoti, 2021 yil. 22-b.
13. Иванников В.П., Клюс П.П., Справочник РТП.-М.: Стройиздат, 1987 г. С. 6.

